

# Alternativa Film Labs Impact Lab dasturiga yig'inni e'lon qiladi



**Impact Lab ijodiy kinolaboratoriysi 26-sentyabrdan 1-oktyabrga qadar**

**Bishkekda** (Qirg'iziston) bo'lib o'tadi. O'z loyihalarida ijtimoiy ahamiyatga ega va dolzarb masalalar: inson huquqlari, atrof-muhit, gender tengsizligi, ijtimoiy mojarolar, insoniy fojialarni yoritib beruvchi prodyuserlar va rejissyorlar uchun mo'ljallangan. Impact Lab ijodkorlarni bunday filmlarni targ'ib qilish va ko'tarilgan muammolarni hal qilish uchun "yo'l xaritalarini" yaratishga o'rgatadi. Kino — san'at turi sifatida o'zgarishlar uchun kuchli impuls bo'la oladi va bizning umumiylar maqsadimiz — dunyoni yaxshiroq qilish uchun uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishdir.

Impact Lab'ning hamkori — Yevropaning **Think-Film Impact Production** mediakompaniyasi bo'lib, u Alternativa Film Labs'ga 2023 yilda kinolaboratoriyanı ishga tushirishga yordam bergan. San'at va ijtimoiy o'zgarishlar sohasida tajribaga ega bo'lgan, Think-Film Impact Production jamoasi ijodiy vizual mediadan harakatga chorlash va ta'sirga erishish vositasi sifatida foydalanadi. Uning asoschisi va bosh direktori **Daniel Turkov**, operatsion direktor **Emi Shepard** va strategik maslahatchi **Kliff Uilsonlar** bu yil Impact Lab fakultetiga qaytadilar. Ular siyosatga ta'sir ko'rsatgan va bir qator odamlarga yordam bergan mutaxassislardir, ularning filmlari Emmi va Oskar mukofotlarini qo'lga kiritgan, ammo eng muhimi - ular haqiqiy o'zgarishlarga olib keladigan strategiyalarni qanday qilib ishlab chiqish va amalga oshirishni bilishadi.



"O'tgan yilgi Impact Lab o'zimiz uchun, Alternativa Film Labs tashkilotchilari va o'qituvchilari uchun ajoyib maktabday bo'ldi. Har bir loyiha va laboratoriyaning har bir ishtirokchisi hikoyalar, ma'nolar va vazifalar butun bir olamini ochib berdi. Ushbu loyihalar ishtirokchilar ishonchi va hamkorlar yordami bilan Markaziy Osiyo tashqarisida ham mashhur bo'lganidan xursandmiz. Markaziy Osiyo davlatlaridan yangi ishtirokchilar, yangi hikoyalar va ijodiy ohanglar bilan uchrashishni va har birimizga umid va kuch bag'ishlovchi filmlar ustida mazmunli va puxta ishlashni intiqlik bilan kutamiz", — deydi Alternativa Film Labs rahbari **Anna Gudkova**.

Impact Lab'da ishtirok etish uchun **Open Call 13-maydan 5-avgustgacha** davom etadi. Markaziy Osiyo davlatlaridan (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston) bo'lgan, jamiyat va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, ko'tarilgan muammoni hal qilish uchun resurslarni jalg etadigan badiiy va hujjatli filmlar loyihalari bo'yicha prodyuser va rejissyorlar ariza topshirishlari mumkin. Ular tajribasi davomida bir yoki bir nechta film ishlab chiqargan va jamoalar bilan ishlashga, yangi ta'sir strategiyalarini o'zlashtirishga qiziqqan mutaxassislardir. Loyihalarni ularning oxirgi bosqichida va tayyor filmlar sifatida ko'rib chiqiladi. Dastur Impact Lab o'tkaziladigan joy yo'l kirasini va turar joy harajatlarini qoplaydi. Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar va ularning loyihalari haqida to'liq ma'lumot alternativa.film saytida e'lon qilingan. Laboratoriyaga ishga qabul qilish natijalari sentabr oyi boshida e'lon qilinadi.

**Alternativa Film loyihasi** — inDrive global texnologik kompaniyasi tomonidan 2023 yilda Markaziy Osiyoda ta'sis etilgan xalqaro notijorat loyihasidir. Loyiha rivojlanayotgan kino sanoatining kinoijodkorlarini qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish maqsadida yaratilgan bo'lib, uning vazifikasi - dunyo haqidagi tushunchamizni kengaytira oladigan va uni yaxshi tomonga o'zgartirishga yordam beradigan ijodkorlarning xalqaro miqyosda taniqligini oshirish, ularni professional o'sishi uchun resurslar bilan ta'minlash va mahalliy kino sanoati va hamjamiyatlarini rivojlantirish uchun kuchli turtki berishdir.

**Alternativa Film Labs** — kino ijodkorlari uchun bepul ta'llim dasturlari bo'lib, kino va ijtimoiy tashabbuslar bo'yicha ko'nikma va vositalarni beradi, ular ijodkorlarga o'z loyihalarini kuchaytirishga, tomoshabinlar sonini oshirishga, va tushuncha yoki resurs yetishmasligi sabab haligacha ekranda namoyish etilmagan muhim voqealarni aytilib berishga yordam beradi. 2023-yilda Alternativa Film Labs jamoasi Almatada impakt laboratoriyasi (Impact Lab) va Markaziy Osiyolik prodyuserlar va rejissyorlar uchun pitching bo'yicha onlayn kurs (Pitching treningi), shuningdek, Bishkekda o'smirlar uchun kinoseminar (Teen Lab) o'tkazdi.

Dastur o'qituvchilari va murabbiylari orasida inson huquqlari va ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan Gaaga xalqaro kinofestivalning badiiy rahbari - Margi de Koenig; Daniyel Turkov, Think-Film Impact Production media kompaniyasi asoschisi; Vim Vanacker, Kann kinofestivali qisqa metrajli filmlar tanloving komissiya a'zosi, pitching bo'yicha ekspert ham bo'lgan. Alternativa Film Labs 2023 g'oliblari Europe Film Market doirasida o'z loyihalarini taqdim etish va rivojlantirish uchun Berlinga jo'nab ketishdi: Daniel Berger Fiction Toolbox dasturi, Banu Ramazanova Doc Toolbox dasturi ishtirokchisi bo'ldilar; Diana Jilkenova va Elyor Ne'mat Europe Film Market akkreditatsiyadan o'tishdi, Alternativa Impact Lab g'olibi Assel Aushakimova Berlinaleda, Talent Project Market pitchingida ikkinchi o'rinni egalladi.